

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

OLIMOV NODIRBEK ANVARJON O‘G‘LI

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA
ETNIK HOLAT**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Olimov Nodirbek Anvarjon o‘g‘li

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida etnik holat 3

Олимов Нодирбек Анваржон угли

Этническая ситуация в Ферганской долине в конце XIX – начале XX века...25

Olimov Nodirbek Anvarjon ugli

Ethnic situation in the Ferghana Valley at the end of the 19th - beginning of the 20th century 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

OLIMOV NODIRBEK ANVARJON O‘G‘LI

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA
ETNIK HOLAT**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Tar1357 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Ulug'bek Saydanovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raxmonov Faxriddin Shoymardonovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Qayumov Asror Raimovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "6" 09 soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali). Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (558 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi). Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "22" 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil "22" 08 da 46 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A.Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.f.d., professor

N.O.Alimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, t.f.f.d., dotsent

M.G.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugun jahonda integratsiyalashuv va globallashtirish jarayonlari jadal kechmoqda. Bunday sharoitda dunyoning turli hududlarida yashovchi xalqlarning etnogenezi, etnosiyosiy, etnomadaniy va etnik tarixi, xususan, milliy davlatchiligining tarixiy asoslarini o'rganish muhim hisoblanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida dunyoda keskin siyosiy, madaniy jarayonlar yuz berib, mazkur jarayonlar Turkiston o'lkasi, shu jumladan, Farg'ona vodiysi etnik holatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Shu bois, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida etnik holatni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlarida turli xalqlar va etnik guruhlarning muayyan mintaqalar bo'ylab joylashuvi hamda o'troqlashuv jarayonlari omillari va sabablarini tadqiq etish izchil amalga oshirilmoqda¹. Shu jihatdan olib qaraganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida yuz bergan etnik o'zgarishlar hamda ularning omillari, natijalari masalasi ham jahon miqyosida sodir bo'lgan etnogenez jarayonlarini tadqiq etishda muhim tarkibiy bo'g'in vazifasini bajaradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, etnogenezi va etnomadaniy o'ziga xos jihatlari masalalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, bugun Respublikada o'zbek xalqining etnik tarixi va etnomadaniyatiga xos an'analarni qayta tiklash hamda rivojlantirish bo'yicha ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"². Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'zining etnomadaniy hamda tabiiy-geografik xususiyatlari bilan boshqa tarixiy-madaniy mintaqalardan ajralib turuvchi Farg'ona vodiysidagi etnik holatni yozma va etnografik materiallarni tahlil qilgan holda o'rganish ushbu tadqiqotning zaruriyatini belgilaydi. Etnik o'zlikni anglash yana uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqqiyotining dinamikasini belgilab turar ekan, ushbu jarayonni tadqiq qilish va o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi

¹ Markaziy YevroOsiyo tadqiqotlar jamiyati (Central Eurasian Studies Society – CESS) URL: <https://www.centraleurasia.org/>; Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti (IFEAC) URL: <https://ifeac.hypotheses.org/>.

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги "Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 5046-сонли Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 23 май. – №101 (6795).

O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”⁴gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrda 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”⁵gi Qarori hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzu tarixshunosligi tahliliga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida etnik holat mavzusining o‘rganilish darajasi uchun zaruriy metodologik asoslardan kelib chiqqan holda muammoga taalluqli adabiyotlarni quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, birinchi guruh XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar, ikkinchisi Rossiya imperiyasi hukmronligi davri tadqiqotlari va uchinchisi sovet davri nashrlaridan iborat. Shuningdek, to‘rtinchi guruhni mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar, beshinchisini esa xorijlik mualliflarning asarlari tashkil qiladi.

Muammoning o‘rganilish darajasi dissertatsiyaning birinchi bobi paragraflarida batafsil tahlil qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan IT-34-4-08 – “Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1867–1991-yillar)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarixiy-etnografik materiallar asosida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida etnik holatni o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Manbalarda mavzuga oid ma‘lumotlarning aks etishini o‘rganish;
- mavzuning tarixshunoslik tahlilini amalga oshirish;
- Farg‘ona vodiysi materiallari asosida o‘troq aholi hayotida yuz bergan etnik va etnodemografik o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish;
- vodiydagi chorvador etnik jamoalarining tarixiy etnodinamikasini tadqiq etish;
- mahalliy aholi xo‘jalik-madaniy transformatsiyasining mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash;

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5841063> (foydalanilgan sana: 23. 01. 2023).

⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 17 ноябрдаги 723-сон “Миллатлараро тотувлик, бағрикенглик ва ҳамжихатликни таъминлаш бўйича жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5108026> (foydalanilgan sana: 05. 11. 2022).

– Farg‘ona vodiysida kechgan migratsiya va etnoslararo integratsiya jarayonlari hududdagi etnik holatning xususiyatini belgilab turuvchi asosiy omil ekanligini dalillash;

– tadqiqotning ilmiy xulosalari asosida amaliy ahamiyatga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi etnik holat belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi etnik holat, xususan, etnodemografik, etnoxo‘jalik, etnosiyosiy va etnomadaniy transformatsiyalar kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tarixiy-retrospektiv, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, dala tadqiqotlari (intervyu, suhbat, kuzatuv) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid mahalliy yozma manbalar, arxiv hujjatlari, matbuot va statistik materiallar o‘rganilib, ulardagi mavzuga doir ma‘lumotlar (Shavqiy Namangoniyning “Jangnomayi Xudoyorxon” asari qipchoqlarning mayda urug‘lari hamda ularning joylashuvi haqidagi muhim manba ekanligi va etnologiya manbashunosligida oldin tadqiq etilmaganligi) o‘zbek etnologiyasi hamda ularning kelib chiqishini o‘rganishda muhim manba ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, o‘rganilgan ilmiy muammoni o‘zbek etnologiyasida (sovet va mustaqillik davri adabiyotlari asosida) o‘rganilganlik holati hamda darajasi aniqlangan;

mahalliy o‘troq hamda chorvador etnik jamoalarda yuz bergan etnodemografik o‘zgarishlar sabablari va uning tarixiy dinamikasi (o‘rganilayotgan davrda vodiya o‘zbeklar ulushining ortib borishiga ayrim etnografik guruhlarining ularga integratsiyalashuvi, yarimko‘chmanchi aholi ulushining kamayishiga esa ko‘chirish siyosati tufayli chorvador aholining yaylovlari tortib olinishi natijasida o‘troqlashuv jarayonlari tezlashganligi sabab bo‘lgan), mahalliy o‘troq aholida lokal etnografik guruhlariga mansublik (qo‘qonlik, marg‘ilonlik, farg‘onalik, andijonlik, namanganlik) holati mavjudligi etnografik materiallar va tarixiy manbalar orqali isbotlangan;

o‘rganilgan davrda Farg‘ona vodiysidagi o‘troq, yarimo‘troq va yarimko‘chmanchi etnik guruhlar turmush tarzi hamda etnomadaniyatidagi an‘anaviylik va lokal jihatlarni yaxshi saqlanib qolganligi, vodiyning o‘troq aholisiga xos xo‘jalik-madaniy an‘analar (dehqonchilik an‘analari, yangi ekin turlari, yerga ishlov berish va sug‘orish texnikasi) azaliy chorvadorlar tomonidan o‘zlashtirila boshlanganligi faktik materiallar bilan (statistik va dala etnografik ma‘lumotlar) asoslangan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida kechgan migratsiya va etnoslararo integratsiya jarayonlari etnik holatga ta‘sir etganligi aniqlangan. Etnoslararo integratsiya jarayoni bir qator yo‘nalishlar (tillararo, oila-nikoh munosabatlari va etnomadaniy hamda savdo-iqtisodiy)da faol kechganligi tarixiy-etnografik materiallar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari asosida Farg‘ona vodiysiga ko‘pgina etnik guruhlarining migratsiyasi natijasida turli xo‘jalik-madaniy tiplarga mansub xalqlarning integratsiya jarayonlari hamda etnomadaniy an‘analarining uyg‘unlashuvini tahlil qilishda foydalanish mumkin bo‘lgan nazariy va uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda Respublikada milliy-etnik totuvlik an‘analarini mustahkamlash, takomillashtirish va milliy-madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada zamonaviy etnologiya va tarix fanlarida e’tirof etilgan ilmiy yondashuvlarga tayanilganligi, tarixiy adabiyotlar, manbalar, axborotchilarning ma’lumotlari hamda boshqa ijtimoiy fanlar vakillarining ilmiy izlanishlaridan samarali foydalanilganligi ilmiy natijalarning ishonchliligi sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy natijalarning OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy nashrlar, Respublika va xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida chop etilgani bilan ham izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida etnik holat ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalar asosida yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida Farg‘ona vodiysidagi etnik holat, xususan, etnomadaniy hamda etnosiyosiy jarayonlarga oid asarlar yaratish, o‘rganilgan masala bo‘yicha milliy-madaniy markazlar uchun ma’lumotnomalar tayyorlash, shuningdek, dissertatsiya materiallaridan “Etnologiya” fanidan o‘quv qo‘llanmalar va darslik ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan mahalliy yozma manbalar, arxiv hujjatlari, matbuot va statistik materiallar o‘rganilib, ulardagi mavzuga oid ma’lumotlar o‘zbek etnologiyasida, ularning kelib chiqishini o‘rganishda muhim manba bo‘lishi ko‘rsatib berilganligi haqidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali faoliyatida “Taqdimot” ko‘rsatuvining Farg‘ona vodiysining etnik holati, xususan, etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar tarixiga oid dasturlarida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 17-apreldagi 02-31-517-sonli ma’lumotnomasi). Taqdim qilingan ma’lumotlar teletomoshabinlarda o‘rganilgan ilmiy muammoni o‘zbek etnologiyasida (sovet va mustaqillik davri adabiyotlari tahlili asosida) tadqiq etish holati bo‘yicha bilim va tasavvurlarini ortishiga yordam bergan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘troq va yarimko‘chmanchi etnografik guruhlar o‘zining xo‘jaligi, turmush tarzi hamda etnomadaniyatida an‘anaviylik va lokal o‘ziga xoslikni nisbatan yaxshi saqlab qolganligi, shu bilan birga, vodiy o‘troq aholisiga xos xo‘jalik-madaniy an‘analarni

yarimo'troq etnoslar o'zlashtira boshlaganligi kabi ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024-yil 14-martdagi 14-07-430-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar O'zbekistondagi ko'p millatli jamiyatning tarixiy ildizlarini ilmiy jihatdan o'rganishga hissa qo'shgan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida istiqomat qilgan o'troq va yarimo'troq (yarimko'chmanchi) etnik guruhlar o'zining xo'jaligi, turmush tarzi hamda etnomadaniyatida an'anaviylik va lokal o'ziga xoslikni yaxshi saqlab qolganligi, shuningdek, vodiyning o'troq aholisiga xos xo'jalik-madaniy an'analarni (dehqonchilik an'analari, yangi ekin turlari, yerga ishlov berish va sug'orish texnikasi) yarimo'troq (yarimko'chmanchi) etnoslar o'zlashtira boshlaganligi ilmiy jihatdan asoslangan ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali faoliyatida "Taqdimot" ko'rsatuvining Farg'ona vodiysining etnik holati, xususan, etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar tarixiga bag'ishlangan dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 17-apreldagi 02-31-517-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning Farg'ona vodiysida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kechgan etnik jarayonlar va etnik holat bo'yicha tasavvurlarini boyitilishiga xizmat qilgan;

o'rganilgan davrda Farg'ona vodiysida kechgan migratsiya va etnoslararo integratsiya jarayonlari etnik holatga ta'sir etganligi aniqlangan. Etnoslararo integratsiyalashuv jarayonlari esa til, madaniy, oila va nikoh hamda iqtisodiy omillar tufayli integratsiyalashuv kabi turlarga bo'linishi tarixiy-etnografik materiallar asosida dalillangan. Mazkur ma'lumotlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida etnik holat haqidagi ilmiy xulosalar aks etgan bo'lib, ushbu ma'lumotlardan Andijon viloyati tarixi va madaniyati muzeyining "Tarix bo'limi" ekspozitsion rejalarini tuzish hamda muzeyning Rossiya imperiyasi davri tarixiga oid ma'lumotlarni shakllantirish yuzasidan tashkil etilgan ko'rgazmalar zalini boyitishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 11-dekabrda 02-05/4733-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar, tarixiy manbalar, ilmiy ma'lumotlar, fotosuratlar va fotoalbom muzey fondini to'ldirish, shuningdek, muzeyga tashrif buyuruvchilarning o'lka tarixiga oid bilimlarini yanada ortishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (ulardan 3 tasi respublika miqyosidagi va 3 tasi xorijiy jurnallarida) maqola, 10 ta xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar sifatida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprotatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e‘lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Tadqiqotning **“Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobning **“Farg‘ona vodiysi etnik holati haqidagi manbalar tahlili”** deb nomlangan dastlabki paragrafida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Farg‘ona vodiysidagi etnik holatga oid ma‘lumotlarni manbalarda aks etishi tahlil qilingan. Tadqiqotga asos bo‘lgan manbalarni beshta guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchi guruhni mavzuga oid bo‘lgan mahalliy yozma manbalar tashkil qiladi. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysida kechgan etnik holatga oid ayrim ma‘lumotlar mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlarda aks etgan, biroq bunday ma‘lumotlar o‘rganilayotgan mavzuni to‘laligicha yoritib berish imkonini bermaydi. Chunki, ushbu davr mahalliy tarixshunoslarning asarlari asosan, xonlik aholisining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy hayotini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda etnik va etnoslararo munosabatlar masalasi yaxshi yoritilmagan. Bunday holat ushbu masalani o‘rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan yozma manbalarni kengroq ko‘lamda ilmiy tadqiq qilish ahamiyatini oshiradi. Shundan kelib chiqib, mazkur paragrafda Is‘hoqxon Ibrat⁶, Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiy⁷, Mirzo Olim ibn domullo Mirzo Rahim Toshkandiy⁸, Shavqiy Namangoniy⁹ va Muhammadaziz Marg‘iloniy¹⁰ kabi mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlardagi mavzuga oid ma‘lumotlar o‘rganilgan.

Masalan, Is‘hoqxon Ibratning **“Tarixi Farg‘ona”** asarida XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida kechgan etnosiyosiy jarayonlarda etnografik guruhlarining ishtiroki hamda vodiy aholisi etnik tarkibi haqida ma‘lumotlar keltirilgan¹¹. Mazkur asar qo‘lyozmasi O‘zFA Sharqshunoslik institutida 11616 raqam ostida saqlanadi. Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning **“Tarixi Shohruxiy”** asarida esa Farg‘ona vodiysi aholisi, migratsion jarayonlar shuningdek, ushbu

⁶ Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991. – 336 б.

⁷ Мулло Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий. Тарихи Шоҳрухий / Ш. Воҳидов таржимаси ва изоҳи. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2014. – 700 б.

⁸ Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-ҳавокин / Нашрга тайёрловчилар А. Матғозиев, М. Усмонова. – Тошкент, 1995. – 128 б.

⁹ Лутфуллоев Х., Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги тарихи назмий манбаларда (**“Вақеоти Муҳаммадалихон”** ва **“Жангномайи Худоёрхоний”**). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 80 б.

¹⁰ Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш. Воҳидов, Д. Сангилова. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 110 б.

¹¹ Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – 336 б.

hududda joylashgan o'troq o'zbek va yarimko'chmanchi, yarimo'troq aholi (qipchoq, yuz, turk, qurama va boshqalar) haqidagi ma'lumotlar berilgan¹². Hozirda ushbu asar qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida fors-tojik tilida 1787-, o'zbekchada esa 4460/1-raqam bilan saqlanadi. Ushbu davrdagi etnosiyosiy jarayonlar masalasi Mirzo Rahim Toshkandiy qalamiga mansub "Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin"¹³ nomli yozma manbada ham o'z aksini topgan. Mazkur asarning uchta qo'lyozma nusxasi esa O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. № 3753, 7515, 9841, 1314).

Shavqiy Namangoniyning "Jangnomayi Xudoyorxon"¹⁴ asari ham XIX asr ikkinchi yarmida qipchoq etnografik guruhining Qo'qon xonligi etnosiyosiy va etnomadaniy hayotidagi o'rni, qipchoq urug'i hamda urug' yetakchilari faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarning qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida 599-raqamda saqlanmoqda. Ushbu asarda Musulmonqulni qipchoqlarning kulon urug'idan ekanligi va bir necha yillar davomida Qo'qon xonligida mingboshi lavozimida faoliyat yuritganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, mazkur manbada xonlik amaldorlari Hotambiy o'lmas, O'tambiy elatan, Mirzod yashik, Muhammadnazarbek va Mullo Xolbeklar esa yettiqashqa kabi etnografik guruhlariga mansubligi qayd etilgan.

XIX asrning oxirlarida Muhammadaziz Marg'iloniy tomonidan yozilgan "Tarixi Aziziy" asari o'zining faktik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur dissertatsiya uchun ushbu asarning ahamiyati shundaki, unda Qo'qon xonligida yuz bergan siyosiy jarayonlar fonida bir qator etnik guruh vakillari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, unda Qo'qon xonligidagi qipchoq, qirg'iz, sart va ming kabi etnoslar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, unda Farg'ona vodiysida yashagan ayrim etnoslar (masalan, qipchoqlar, qirg'izlar) guruhlarining Koshg'arga ko'chganliklariga oid ma'lumotlar keltirilgan¹⁵. Mazkur asar qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida 11108-raqam ostida saqlanadi.

Manbalarning ikkinchi guruhini matbuot materiallari tashkil etadi. Xususan, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan nashr qilingan "Ойна" jurnali, "Туркестанский сборник" to'plami va "Туркестанские ведомости" gazetalarida o'zbek hamda rus tillarida chop etilgan maqolalarda Farg'ona vodiysi aholisi, tarixi, xo'jaligi va etnografiyasiga oid ma'lumotlar uchraydi¹⁶.

Uchinchi guruhni esa arxiv fondlaridagi hujjatlar tashkil etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi etnik holatini o'rganishda O'zbekiston Milliy

¹² Мулло Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Тарихи Шоҳрухий. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – 700 б.

¹³ Мирзо Олим Мушриф. Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Тошкент, 1995. – 128 б.

¹⁴ Лутфуллоев Х., Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги тарихи назмий манбаларда ("Вақоти Муҳаммадалихон" ва "Жангномайи Худоёрхоний). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 80 б.

¹⁵ Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий... – Б. 48.

¹⁶ Бехбудий М. "Сарт" сўзи мажхулдир / Ойна. – 1914. – №22, 23, 24; О'sha muallif: "Сарт" сўзи маълум бўлмади / Ойна. – 1914. – №39; Гребенкин А. Д. Таджики // Русский Туркестан / Туркестанский сборник. Т. 57. – С. 51–109; О'sha muallif: Узбеки. ["Русский Туркестан", вып. 2] / Туркестанский сборник. Т. 57. – С. 51–109; Петровский. Н.Ф. Очерки Кокандского ханства // Вестникъ Европы. – №10 / Туркестанский сборник. – СПб., 1875. Том. 75. – С. 735; Султан Нуркен. Очерк истории Коканда // Туркестанские ведомости. 1872. – №35; Абдулгафоров С. Краткий очерк Кокандского ханства // Туркестанские ведомости. 1892. – №26, 29, 36.

arxivida saqlanayotgan I-1 – Turkiston general-gubernatorligi devoni, I-19 – Farg‘ona viloyati bo‘limi, I-23 – Farg‘ona viloyati Skobelev uyezdi bo‘limi, I-25 – Farg‘ona viloyati Andijon uyezdi bo‘limi fondlaridagi hujjatlardan foydalanildi. Arxiv fondlaridagi vodiy aholisi etnodemografiyasi va xo‘jaligiga oid ma‘lumotlardan mavzu doirasida o‘rganildi.

To‘rtinchi guruhdagi manbalarga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nashr etilgan statistik materiallardagi ma‘lumotlar tegishli bo‘lib, ayniqsa, 1897-yilda o‘tkazilgan Butun Rossiya aholini ro‘yxatdan o‘tkazish materiallari¹⁷ hamda turli yillarda chiqarilgan “Обзор Ферганской области¹⁸” kabi statistik sharhlarda ham Farg‘ona vodiysi aholisining etnik holati to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, vodiydagi etnik holatini o‘rganishda 1897-yilda o‘tkazilgan Butun Rossiya aholini ro‘yxatga olish materiallari ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu statistik materiallarda Farg‘ona viloyatidagi bir qator uyezdlar aholisining etnodemografik xususiyatlari ko‘rsatilgan¹⁹.

Beshinchi guruhdagi manbalarga esa xorijlik olimlarning tadqiqotlari kiradi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysini xorijlik tadqiqotchilar ham o‘rgangan bo‘lib, xususan, ingliz, nemis va fransuz tillarida yozilgan asarlarda vodiyning etnik holatiga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan. Masalan, amerikalik elchi va tadqiqotchi Yujin Skaylarning “Turkiston” nomli asari mavzu manbashunoslik tahlilida muhim o‘rin tutadi²⁰. Chunki, mazkur asarda Qo‘qon xonligi aholisi, etnik tarkibi, urf-odat va marosimlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar mavjud²¹.

Xullas, yuqoridagi manbalarni tahlilidan ko‘rinadiki, ularda ko‘rib chiqilayotgan mavzuga aloqador ma‘lumotlar tarqoq holda bo‘lib, asosan, ular mavzuni u yoki bu masalasiga oidligi bilan xarakterlanadi.

Mazkur bobning “**Mavzuning tarixshunoslik tahlili**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida bevosita dissertatsiya mavzusiga oid asarlarni quyidagi uch guruhga bo‘lib tahlil qilingan:

1. Rossiya imperiyasi davri asarlari
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar.

Rossiya imperiyasi davrida yozilgan V.V.Velyaminov-Zernov, A.D. Grebenkin, V.Nalivkin va M.Nalivkina, F.Girs, A.F.Middendorf, L.F.Kostenko, V.I.Kushelevskiy, N.A.Aristov kabi tadqiqotchilarning asarlari o‘rganilib, ulardagi mavzuga oid materiallar tahlil qilingan.

Rus sharqshunosi A.Kunning “Очерк Кокандского ханства” asarida mavzuga oid ma‘lumotlar mavjud. Ayniqsa, uning “Некоторые сведения о

¹⁷ Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т. LXXXIX. Ферганская область. – СПб., 1904. – 180 с.

¹⁸ Обзор Ферганской области за год 1888. – Новый Маргелан, 1890. – С. 13; Статический обзор Ферганской области за 1913 год. – Новый Маргелан, 1914. – С. 16.

¹⁹ Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т. LXXXIX. Ферганская область. Петербург, 1904. – С. 1-179.

²⁰ Schuyler E. Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol.II. – New York, 1885. – 463 p.

²¹ Зиёева Д.Х. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX аср – XX аср бошлари). – Тошкент: Nurafshon business, 2022. – Б. 392.

Ферганской долине” nomli maqolasida Farg‘ona vodiysining o‘troq va ko‘chmanchi aholisi, ularning soni hamda etnik tarkibiga oid muhim ma’lumotlar uchraydi. Asardagi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘sha davrda vodiy aholisi 960 ming nafarni tashkil etib, shundan 132 ming xo‘jalik o‘troq holda, 60 minng xo‘jalik esa ko‘chmanchi holda yashagan²².

Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan, V.Nalivkinning qalamiga mansub “Краткая история Кокандского ханства” asarda esa XIX asr ikkinchi yarmida xonlikda kechgan etnosiyosiy jarayonlar va unda turli etnik jamoalarning ishtiroki bayon qilingan. Ushbu asarning qimmatli shundaki, unda Farg‘ona vodiysida yashagan o‘zbek, qirg‘iz, turk, qipchoq, yuz va qoraqalpoqlarning vodiy bo‘ylab joylashuvi ko‘rsatilgan²³.

Harbiy sharqshunos L.F.Kostenkoning “Опыт военно-статистического обозрения Туркестанского военного округа” asaridan ham Farg‘ona vodiysi aholisi haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar o‘rin olgan. Xususan, unda vodiyda yashayotgan aholini turmush-tarzi va etnik tarkibi haqida yaxshi ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, ushbu asarda bizning mavzumizga bevosita dahldor masala, ya’ni o‘zbeklarning urug‘-qabilaviy tuzulishiga oid ma’lumotlar mavjud²⁴.

Sovet davri tadqiqotchilaridan Sh.M.Inog‘omov, Ya.R.Vinnikov va S.S.Gubayevalarning asarlaridan ham vodiy aholisi etnik tarkibi, turli etnoslar soni va hududiy joylashuviga oid qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin. Ushbu mualliflarning asarlari umumiy bir masalaga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ayni vaqtda o‘ziga xoslik ham kasb etadi. Masalan, Sh.M.Inog‘omovning “Этнический состав населения и этнографическая карта Ферганской долины в границах УзССР” mavzusidagi nomzodlik disertatsiyasida vodiy aholisining etnik tarkibi 1926-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish materiallari asosida yozilgan.

Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi etnografiyasi va etnik tarixini o‘rganishda tamoman yangi bir davr boshlandi. Mazkur davrda ushbu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotlar izchil yo‘lga qo‘yildi va mazmun jihatdan ancha pishiq ishlar yaratildi. U.S.Abdullayev tomonidan 2005-yilda nashr etilgan “Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar” deb nomlangan monografiya e’tiborga molik. Muallif ushbu asarida vodiy hududida yashayotgan turli etnik jamoalarni o‘zaro munosabatlarini tadqiq etishni bosh maqsad qilib olgan bo‘lsa-da, ishning alohida bo‘limi ko‘rib chiqilayotgan masala – etnik tarkib muammosi monografiyaning alohida bir bo‘limida chuqur va atroflicha tahlil qilingan²⁵.

Etnograf H.Rahmatillayevning “Farg‘ona vodiysi etnodinamikasi”²⁶ nomli monografiyasida XIX asr oxiri – XX asr davomida Farg‘ona vodiysi aholisi etnografiyasining o‘ziga xos jihatlari hamda mintaqada kechgan etnosiyosiy, etnomadaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta’sirida aholi nufuzining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan.

²² Кун А.Л. Очерк Кокандского ханства / Известия Императорского Русского географического общества. Т. XII. Отдел 2. 1876. – СПб., 1877.

²³ Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.

²⁴ Костенко Л.Ф. Туркестанский край. – С. Петербург, 1880. – 400 с.

²⁵ Абдуллаев У.С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент, 2005. – 215 б.

²⁶ Раҳматиллаев Ҳ. Фаргона водийси аҳолиси этнодинамикаси. – Тошкент: Янги нашр, 2013. – 115 б.

Shuningdek, bir qator tadqiqotchilarning asarlarida Farg‘ona vodiysida yashagan ayrim etnik guruhlariga oid ma‘lumotlar uchraydi. Masalan, G.K.Valixonovning monografiyasida uyg‘urlar, Sh.Ataxonovning asarida lo‘lilar va R.S.Ataxonovning dissertatsiyasida qoraqalpoqlar haqida ma‘lumotlarni topish mumkin²⁷.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibiga oid ma‘lumotlar bir qator adabiyotlarda keltirilgan, ammo mazkur davrdagi etnik holat umumiy tarzda kam o‘rganilgan. Ayni vaqtda shuni ta‘kidlash ham o‘rinliki, ushbu masalaning ko‘plab jihatlarini yangi ma‘lumotlar tahlili asosida o‘rganish dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning **“O‘troq va yarimo‘troq (yarimko‘chmanchi) tarzda yashagan aholining etnodemografik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi vodiya yashagan aholining umumiy tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafi **“Mahalliy o‘troq, yarimo‘troq etnoslar va ulardagi etnodemografik o‘zgarishlar”** deb nomlanadi. Unda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisi o‘troq, yarimo‘troq, yarimko‘chmanchi va ko‘chmanchi tarzda hayot kechirganligi mohiyati ochib berilgan.

Mahalliy muarrixlardan Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruxiy” asaridagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysining o‘troq aholisini sart, tojik va o‘zbeklar, ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchilarni esa qirg‘iz, qipchoq, qoraqalpoq, turk, cho‘nbag‘ish hamda qalmoqlar tashkil etgan²⁸.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisining o‘troqlashuvi jadallik bilan o‘sib borgan. Vodiy hududidagi o‘troq aholining asosiy qismini o‘zbek va tojik aholi tashkil etgan. 1897-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida umumiy aholi soni Xo‘jand uyezdini qo‘shib hisoblaganda, 1.757.349 kishi bo‘lib, o‘troq va yarimo‘troq o‘zbeklar jami aholining 73 foizini tashkil etgan. 1926-yilda esa Farg‘ona vodiysida jami 1.350.000 nafardan ortiq o‘zbeklar istiqomat qilib, ular jami aholining 81 foizga yaqin bo‘lgan. Ammo, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘zbeklarning ulushi 1897-yilda 84,7 dan 1926-yilda 69,1 foizgacha kamayib ketgan²⁹.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi yarimo‘troq o‘zbeklarda esa urug‘-qabilaviy tuzulish saqlanib qolgan edi. Yarimo‘troq o‘zbeklar ichida qipchoq, turk, yuz, qurama kabi turkiy tilli qabilalar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ushbu etnografik guruhlar XX asr boshlarida ham o‘zlarini alohida etnik jamoa sifatida tan olganlar. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ushbu etnografik guruhlar faqatgina 1930-yillarga kelibgina statistik ma‘lumotlarda o‘zbeklar tarkibiga qo‘shib hisoblana boshlangan³⁰.

O‘rganilayotgan davrda o‘troq o‘zbeklar o‘zlarini asosan, shahar hamda hududiy birliklar nomi, masalan, andijonlik, namanganlik, qo‘qonlik kabi nomlar

²⁷ Валихонова Г.К. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Янги нашр, 2013; Атахонов Ш. Фарғона водийси лўлилари (Тарихий-этнологик тадқиқот). – Ўш, 2017. Атахонов Р.С. Фарғона водийси қорақалпоқларида анъанавий ва замонавий этноинтеграцион жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Термиз, 2021.

²⁸ Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи – как исторический источник. – Алма-Ата, 1987. – С. 78.

²⁹ Раҳматиллаев Ҳ. Фарғона водийси аҳолиси этнодинамикаси... – Б. 91.

³⁰ Yuqoridagi asar... – Б. 48.

bilan atab kelganlar³¹. Lokal etnomadaniy o'zliklar yozma manbalarda ham keltirilgan, Masalan, Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida ho'qandlik, koshg'arlik, marg'ilonlik, farg'onalik, namanganlik, to'raqo'rg'onlik kabi lokal etnografik guruhlar nomlarini uchratish mumkin³². Ushbu ma'lumotlarni keksa axborotchilar ham tasdiqlaydilar³³.

Tojiklar Farg'ona vodiysining qadimgi o'troq aholisidan biri hisoblanib, ular vodiyning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy qismlaridagi aholining ko'pchiligini tashkil etadi. 1889-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida 60 mingdan ziyod tojiklar yashagan³⁴. 1897-yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarida Farg'ona vodiysida 114 mingdan ortiq, Xo'jand uyezdida esa 94 mingdan ortiq tojiklar istiqomat qilganligi qayd etilgan³⁵. Bundan kelib chiqadiki, XIX asr oxirida Farg'ona vodiysi umumiy aholisining 11,8 foizini tojiklar tashkil etgan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish hujjatlarida esa vodiy hududida 161 mingdan ortiq tojiklar yashaganligi va ular Farg'ona okrugi jami aholisining 8 foizi, Andijon okrugining 1,7 foizi hamda Xo'jand okrugining 33,8 foizini tashkil etganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan³⁶. Demak, XX asr boshlarida tojiklar vodiya yashovchi jami aholining 9,6 foizini tashkil qilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vodiyning shahar aholisi orasida tojiklarning nisbati XIX asr oxiridagi ulushiga nisbatan 6,5 dan 11,3 foizga o'sgan bo'lsa, xuddi shu davrda Farg'ona vodiysi qishloq aholisi orasida tojiklarning ulushi 8,4 dan 4,7 foizga kamaygan³⁷.

XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida o'zbeklar sonining oshishi mazkur davrda o'tkazilgan aholini ro'yxat olish hujjatlarida qipchoq, turk, yuz, qurama kabi turkiy tilli etnografik guruhlarining o'zbeklar tarkibiga qo'shilishi, ularga tili hamda madaniyati yaqin bo'lgan qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq, tojik, ma'lum darajada tatar kabi xalqlarning o'zbeklarga assimilyatsiyalashuvi bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yana shuni ta'kidlash mumkinki, XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida aholining o'troqlashuvi jadal kechgan hamda mazkur davrda mintaqa aholisining 92 foizdan ortiq qismi o'troqlashib bo'lgan edi.

Dissertatsiya ikkinchi bobining "**Chorvador etnik jamoalarning joylashuvi va tarixiy dinamikasi**" deb nomlangan ikkinchi paragrafida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida istiqomat qilayotgan yarimko'chmanchi aholi, ularning urug'larga bo'linishi va uning tarixiy dinamikasi o'rganilgan. Unda XIX asr 80-yillariga kelib, Farg'ona vodiysi umumiy aholi soni 729 mingdan ortiq bo'lib, shundan 124 mingga yaqini yoki 17 foizi aholi ko'chmanchi holda hayot kechirganligi,³⁸ mazkur davrda ko'chmanchi aholi Andijon va O'sh, Namangan,

³¹ Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар ... – Б. 10.

³² Исҳоқхон Иброт. Фарғона тарихи. ... – Б. 296, 320,321.

³³ Dala yozuvlari. Andijon viloyati Baliqchi tumani Baliqchi qishlog'i. 2021-yil; Andijon viloyati Andijon shahri Bo'ston dahasi. 2022-yil; Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Axxi qishlog'i. 2022-yil.

³⁴ Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты / Отв. ред. С.Н.Абашин, В.И.Бушков. – Москва: Наука, 2004. – С. 91.

³⁵ Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т. LXXXIX... – С. 1-179.

³⁶ Всесоюзная перепись населения 1926 г. – М.: Изд-во ЦСУ Союза ССР 1928. Вып.1. Часть. 7. – С. 9.

³⁷ Раҳматиллаев Ҳ. Фарғона водийси аҳолиси этнодинамикаси... – Б. 88, 91.

³⁸ Костенко Л.Ф. Туркестанский край... – С. 326.

Farg‘ona viloyatining boshqa uyezdlariga qaraganda ko‘proqni tashkil qilganligiga oid ma‘lumotlar aks etgan. Xususan, Farg‘ona vodiysida istiqomat qilgan qirg‘iz, qoraqalpoq, yarimko‘chmanchi o‘zbeklar hamda ularning urug‘larining asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, ular yaylovlarda chorva mollari boqib kun kechirgan. Tarixdan ma‘lumki, Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligini bosib olgandan so‘ng vodiy hududlariga aholini ko‘chirish siyosatini olib boradi. Ko‘chirib keltirilganning asosiy qismi Andijon, O‘sh hamda qisman Namangan uyezdlarining yarimko‘chmanchi va yarimo‘troq aholisi hududlariga joylashtirildi. Yarimchorvador aholining asosiy tirikchilik manbai bo‘lgan yaylovlarning tortib olinishi tufayli ularda chorvachilik qisqarib ketadi³⁹. Aynan ushbu o‘zgarishlar tufayli XIX asr oxirida Farg‘ona vodiysida yashagan chorvador aholining o‘troqlashuvi yanada tezlashdi.

Farg‘ona vodiysida yarimko‘chmanchi aholining asosiy qismini qirg‘izlar va qoraqalpoqlar tashkil etgan. Bundan tashqari, yarim o‘troq o‘zbeklar va ularning ayrim etnografik guruhlari ham chorvachilik bilan shug‘ullangan. Vodiy hududlarida son jihatdan ozchilikni tashkil qilgan qozoq, qalmoq, turkman kabi ko‘chmanchi chorvador xalqlar ham istiqomat qilgan.

XIX asr 80-yillarida vodiy hududidagi qirg‘izlar 126 ming nafarni tashkil etgan bo‘lib, ular vodiy umumiy aholisining 17 foizini tashkil etgan⁴⁰. 1897-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida (Xo‘jand uyezdini qo‘shib hisoblaganda) 213 mingdan ziyod qirg‘izlar yashab, ular jami aholining 12 foizini tashkil qilgan⁴¹. Farg‘ona vodiysidagi qirg‘izlarning asosiy qismi O‘sh uyezdida yashagan bo‘lib, ular mazkur hudud aholisining katta qismini tashkil etgan.

XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududidagi Farg‘ona vodiysi viloyatlarida qirg‘izlar asosan, qishloqlarda yashagan bo‘lib, ushbu davrda mintaqa qishloqlarida ularning solishtirma nufusi 4,9 dan 4,6 foizga kamayadi. Vodiya qirg‘izlarning ulushi kamayib ketishi asosan, ularning o‘zbeklar tarkibiga assimilyatsiyalashishi bilan bog‘liq⁴².

Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiy qalamiga mansub “Tarixi Shohruxiy” asarida qirg‘izlar O‘sh, Oloy hududlarida yashaganligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. 1862-yilda Qo‘qon xoni Mallaxonni qatl qilishda qatnashgan Xidir qirg‘iz Marg‘ilonda hokimlik qilgan bo‘lib, u ushbu etnosning o‘ttiz o‘g‘ul urug‘i vakili edi⁴³. XIX asr oxirida Farg‘ona vodiysi hududlarida qirg‘izlarning o‘ttiz o‘g‘ul urug‘i bo‘lganligi haqida boshqa bir mahalliy tarixchi Muhammadaziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asari orqali ham bilish mumkin⁴⁴.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida ruslarga qarshi kurashgan Qurbonjon dodxoh esa qirg‘izlarning mung‘ush urugidan bo‘lgan⁴⁵.

³⁹ Абрамзон С.М. Очерк культуры киргизского народа. – Фрунзе, 1946. – С. 28.

⁴⁰ Костенко Л.Ф. Туркестанский край... – С. 326.

⁴¹ Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Т. LXXXIX... – С. 1-179.

⁴² Раҳматиллаев Х. Фарғона водийси аҳолиси этнодинамикаси... – Б. 49, 88.

⁴³ Мулло Ниез Муҳаммад Хўқандий. Тарихи Шохрухий... – Б. 175, 230.

⁴⁴ Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий... – Б. 104.

⁴⁵ Мулло Ниез Муҳаммад Хўқандий. Тарихи Шохрухий... – Б. 463.

Rossiya imperiyasi Farg‘ona vodiysini to‘liq egallagandan so‘ng u Oloy vohasidagi ichki boshqaruvda mustaqillikni saqlab qoladi hamda avval Oloy, keyin umrining oxirigacha O‘sh yaqinidagi qishlog‘ida yashagan⁴⁶.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida yashagan qoraqalpoqlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni bir qator mahalliy tarixchilarning asarlarida uchratish mumkin. Misol uchun, Mulla Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruxiy” asarida qoraqalpoqlar vodiylar hududida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi holda yashaganligi qayd etilgan. Xudoyorxon 1863-yilda Andijondagi qo‘zg‘olonni bostirish uchun yuborgan amaldorlar orasida Do‘st Muhammad qoraqalpoq ham bor edi⁴⁷.

Yana bir mahalliy tarixchilardan biri Muhammadumar Umidiyning “Tarixchayi Turoniy” asaridagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Do‘st Muhammad qoraqalpoq keyinchalik Baliqchiga hokim etib tayinlangan. Yana ushbu asarda kelib chiqishi qoraqalpoqlardan bo‘lgan Fozilbek dasturxonchining mingboshi lavozimiga tayinlanganligi yozib qoldirilgan. Fozilbek mingboshining o‘g‘li Zulfiqorbek ham 1874 – 1875-yillarda Qo‘qon xoni Xudoyorxon xizmatida bo‘lgan⁴⁸. Bundan tashqari, Andijon viloyati Baliqchi tumanida “Zulfiqor” nomli qishloq mavjud bo‘lib, hozirgi kunda bu yerda bir qancha qoraqalpoq aholisi yashaydi⁴⁹. Mazkur ma‘lumotlardan bilish mumkinki, qoraqalpoqlar XIX asr oxirlarida Farg‘ona hududida nafaqat istiqomat qilgan, shu bilan birga, Qo‘qon xonligida kechgan etnosiyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etgan.

1926-yildagi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida 19 mingga yaqin yoki umumiy aholining 1,6 foiz qismi qoraqalpoqlardan iborat bo‘lgan⁵⁰. Ko‘rinib turibdiki, ushbu aholi ro‘yxati materiallarida ularning vodiydagi soni kamaya boshlagan, bunga esa ularning o‘zbeklar bilan assimilyatsiyalashuvi tezlashganini sabab qilib ko‘rsatish mumkin⁵¹. Misol uchun, 1926-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, qoraqalpoqlarning 2/3 qismi o‘zbek tilida so‘zlashgan⁵². Etnograf R. Ataxonovning fikriga ko‘ra esa XX asr birinchi choragida vodiydagi qoraqalpoqlarning keskin kamayishiga bir qator siyosiy omillar ham sabab bo‘lgan. Misol uchun, mazkur davrda aholining sovet hokimiyatiga qarshi milliy-ozodlik kurashi va uning natijasida minglab odamlar qurbon bo‘lishi bunday etnodemografik o‘zgarishlarga olib kelgan⁵³.

XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida qozoq, turkman va qalmoq kabi ko‘chmanchi hamda yarim ko‘chmanchi aholi ham yashagan bo‘lib, ular kamchilikni tashkil etgan. Qadimdan ushbu xalqlar ko‘chmanchi hayot kechirgan, ammo XX asr boshlariga kelib, ular ham boshqa ko‘chmanchi hamda yarimko‘chmanchi aholi singari o‘troqlashib bo‘lgan edi.

Xullas, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisi ko‘chmanchi hayot tarzidan o‘troq hayot tarziga o‘tishi juda tez sodir bo‘lgan,

⁴⁶ Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 357.

⁴⁷ Мулло Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Тарихи Шохрухий... – Б. 240.

⁴⁸ Воҳидов Ш.Х. Қўқон хонлиги тарихи. – Тошкент, 2014. – Б. 123, 124.

⁴⁹ Dala yozuvlari. Andijon viloyati Baliqchi tumani Zulfiqor qishlog‘i. 2022-yil.

⁵⁰ Раҳматиллаев Ҳ. Фарғона водийси аҳолиси этнодинамикаси... – Б. 44.

⁵¹ Yuqoridagi asar... – Б. 89.

⁵² Всесоюзная перепись населения 1926 г. Т.XV. – Москва, 1928. – С. 17–42.

⁵³ Атахонов Р.С. Фарғона водийси қорақалпоқлари. – Андижон, 2022. – Б. 34.

bunga tabiiy hamda siyosiy omillar sharoit yaratgan. Farg‘ona vodiysidagi ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi aholi ulushi XIX asr 70-yillarida 30 foiz bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich XX asr boshlarida 8,1 foizgacha kamaygan.

Tadqiqotning **“Xo‘jalik-madaniy transformatsiyalar va etnoslararo jarayonlarning jadallashuvi”** deb nomlangan uchinchi bobi dastlabki paragrafida qadimdan mamlakat hududida asosan, uch xil xo‘jalik-madaniy tiplar shakllanganligi, ular – o‘troq dehqonlar, yarimo‘troq aholi va ko‘chmanchi chorvadorlar ekanligiga doir materiallar aks etgan. Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi hududida asosan birinchi va ikkinchi xo‘jalik-madaniy tiplari bo‘lib, ularning ham o‘z navbatida mahalliy yo‘nalishlari bor edi⁵⁴.

Farg‘ona vodiysi tog‘lik hududda joylashgan bo‘lib, uning iqlimi mo‘tadil, oqim suvning serob, tarkibi jihatidan eng yaxshi, serhosil tuproqning mavjudligi juda qadimdan boshlab sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligining muttasil rivojlanishini ta‘minlagan.

Birinchi, ya‘ni o‘troq sug‘orma dehqonchilik tipida aholi dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik, savdo-sotiq va qisman chorvachilik bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Misol uchun, mazkur tipga mansub har bir xo‘jalikda bir nechta ho‘kiz, sigir va otlar mavjud bo‘lib, ular faqatgina ichki iste‘mol uchungina boqilgan va savdo-sotiq qilinmagan⁵⁵.

Ikkinchisi bu – yarimo‘troq xo‘jalik-madaniy tip bo‘lib, ushbu tipga mansub aholi chorvachilik, (tabiiy-geografik sharoitdan kelib chiqib) baliqchilik va ba‘zan dehqonchilik bilan ham bir vaqtning o‘zida mashg‘ul bo‘lgan.

Xo‘jalik-madaniy tiplarni Farg‘ona vodiysi misolida tahlil etish orqali shularni bilish mumkinki, birinchidan, vodiy hududida I–II xo‘jalik-madaniy tiplar qadimdan beri mavjud va ular asrlar davomida takomillashib borgan. Mazkur tiplar umumiy o‘zaro o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, har bir tipning o‘ziga xos va alohida xususiyatlari ham saqlanib qolgan edi.

Yarimo‘troq va ko‘chmanchi chorvador aholi doimo birinchi xo‘jalik-madaniy tipga mansub o‘troq o‘zbek, tojik, uyg‘urlar tomonidan ishlab chiqilgan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyojmand bo‘lganlar. Ayni vaqtda, ularning o‘zlari ham o‘troq aholi yashaydigan hududlarni go‘sht, teri va jun singari chorvachilik mahsuloti bilan ta‘minlab turganlar. Bir so‘z bilan ifodalaganda, o‘troq dehqon, hunarmand aholi va ko‘chmanchi chorvador qabilalar o‘rtasida mahsulot ayriboshlash qadimdan o‘lga qo‘yilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yarimo‘troq aholining turar-joy qurilish, kiyim-kechak tayyorlash sohalari va oziq-ovqatlarida o‘troq aholiga xos xususiyatlar rivojlana boshladi. Bunday sharoitda ikki xil xo‘jalik-madaniy tipga mansub etnoslar orasidagi o‘zaro munosabatlar asosan, ijobiy xarakter kasb etganligiga shubha yo‘q.

O‘rganilayotgan davrda Farg‘ona vodiysida ushbu ikki xo‘jalik-madaniy tiplarda transformatsiya jarayonlari jadal kechgan. Misol uchun, dehqonchilikda

⁵⁴ Абдуллаев У.С. Этнологияда хўжалик-маданий типлар тушунчаси / Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. IV Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Тошкент-Наманган, 2007. – Б. 8–11.

⁵⁵ Қаюмов А.Р. XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида этник ҳолат. – Тошкент, 2015. – Б. 123.

yerga ishlov berishning texnikasi o'zgaradi, yangi mehnat qurollari kirib keladi, sug'orish tizimida kanallar, suv nasoslari paydo bo'ladi. Bundan tashqari, juda ko'p yangi ekin turlari va avval ekilgan o'simliklarning yangi navlari yetishtirala boshlanadi.

